

BIN SIN IJODIDAN “QOG’OZ QAYIQ” SHE’RINING LINGVOPOETIK TAHLILI XUSUSIDA

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15032990>

Sodiqova Dilafruz Azimjon qizi

*TDSHU, Tarjimashunoslik, tilshunoslik va
xalqaro jurnalistika oliy maktabi o’qituvchisi*

Annotatsiya. XX asr xitoy she’riyatining yorqin namoyondalaridan biri *būjkl’i Bing sin*. *Bing Xin ijodini o’rganish, she’rlarini lingvopoetik tahlilga tortish orqali o’sha davr ijodiy muhitini, xitoy tili xususiyatlarini, mamlakat ayollarining orzu, maqsadlari, ichki dunyosini tom ma’noda asl bo’yoqlar bilan aks ettirgan bo’lamiz. Shu kungacha Bing sin ijodi o’zbek tilida chuqur tadqiq etilmagan. Ayniqsa lingvopoetik jihatdan o’rganilmagan. Ijodining aksariyat qismi ingliz va rus tillariga o’girilgan, xorijiy tillarda Bing Sin she’riyati bo’yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Biroq, ona tilimizga uning ayrim she’rlarigina tarjima qilingan.*

Ushbu maqolada shoiraning “Qog’oz qayiq” nomli she’ri lingvopoetik tahlilga tortilgan, stilistik xususiyatlari bayon etilgan va xitoy tilidan o’zbek tiliga tarjima qilingan. Ijodkor she’rlaridagi konnotativ ma’noni ifodalab kelgan til vositalarining xususiyatlarini tahlil qilish, she’rlarida qo’llanilgan badiiy san’atlar, leksik takrorlar, shuningdek, xitoy xalq iboralari xususiyatlarini ochib berish, she’rdagi badiiy obrazlar sistemasining yoritilishi asosiy vazifalarimizdan biridir.

Kalit so’zlar: *lingvopoetik tahlil, leksik takror, o’xshatish, antonimiya, antiteza, epitet.*

К ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКОМУ АНАЛИЗУ ПОЭМЫ БИН СИНА «БУМАЖНЫЙ КОРАБЛИК»

Аннотация. Бин Син – один из ярких представителей китайской поэзии XX века. Изучая творчество Бин Сина и анализируя её стихи в лингвопоэтическом анализе, мы в буквальном смысле слова отразим в оригинальных красках творческую атмосферу того времени, особенности китайского языка, мечты, цели, внутренний мир женщин страны. До сих пор творчество Бин Сина на узбекском языке досконально не изучено. Особенно с лингвопоэтической точки зрения оно не изучено. Большинство её произведений переведено на английский и русский языки, проводятся научные исследования поэзии Бин Сина на иностранных языках. Однако лишь некоторые из её стихов переведены на наш родной язык.

В данной статье стихотворение поэтессы «Бумажный кораблик» проанализировано лингвистически, описаны его стилистические особенности и переведено с китайского на узбекский язык. Одна из наших основных задач -

проанализировать особенности языковых средств, выражающих коннотативный смысл в стихотворениях поэта, выявить особенности художественных приемов, лексических повторов и китайских народных словосочетаний, используемых в её стихотворениях, осветить систему художественных образов в стихотворении.

Ключевые слова: лингвопоэтический анализ, лексический повтор, сравнение, антонимия, антитеза, эпитет.

ON THE LINGUOPOETICAL ANALYSIS OF BING SIN'S POEM "PAPER BOAT"

Abstract. *Bing Xing is one of the brightest representatives of Chinese poetry of the twentieth century. By studying the work of Bing Xin and analyzing her poems in linguopoetic analysis, we will literally reflect in original colors the creative atmosphere of that time, the characteristics of the Chinese language, dreams, goals, and the inner world of the country's women. Until now, the work of Bin Sin in the Uzbek language has not been thoroughly studied. It has not been studied especially from a linguapoetic point of view. Most of her works have been translated into English and Russian, and scientific research is being conducted on Bing Xing's poetry in foreign languages. However, only a few of her poems have been translated into our native language.*

In this article, the poetess's poem "Paper Boat" is analyzed linguistically, its stylistic features are described and translated from Chinese into Uzbek. One of our main tasks is to analyze the features of linguistic means expressing the connotative meaning in the poet's poems, to identify the features of artistic techniques, lexical repetitions and Chinese folk phrases used in her poems, to highlight the system of artistic images in the poem.

Key words: *linguapoetic analysis, lexical repetition, comparison, antonymy, antithesis, epithet.*

“青年人呵！为了后来的回忆 小心着意的描你现在的图画»

(Qīngnián rén hé! Wèile hòulái de huíyì xiǎoxīn zhuóyì de miáo nǐ xiànzài de túhuà)

“Yosh avlod, kelajak xotira uchun, buguningni chizgin e’tibor bilan!”

冰心 (Bing sin)

Badiiy asar tilini o’rganishdagi lingvopoetik yo’nalish tilning estetik vazifasini tadqiq etishga qaratilgan. Aytish lozimki, tilning estetik vazifasining asosiy namoyon bo’lish o’rni badiiy asar matni ekan, bu vazifaning o’ziga xos xususiyatlarini faqat tilshunoslik yoki faqat adabiyotshunoslik doirasida o’rganish qiyin. Buning uchun adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, poetika kabi adabiyotshunoslik yo’nalishlari va lingvistik stilistika, til tarixi, leksikologiya, semasiologiya, etimologiya, grammatika kabi tilshunoslik yo’nalishlari bir-biri

bilan hamkorlikda ish ko'rishi lozim. Tilning estetik vazifasi masalasi bu ikki yirik fan oralig'idagi murakkab muammodir. Badiiy matndagi poetik aktuallashuv fonografik, leksik, morfologik va sintaktik vositalarning har birida o'ziga xos tarzda kechadi. Badiiy matnning lisoniy—estetik butunlik sifatidagi tabiat ham shakliy, ham semantik mohiyatga ega bo'lgan integrativ munosabatlarning mavjudligiga ko'ra yuzaga keladi. Quyida xitoy shoirasi Bin sin ijodidan ayrim namunalarni lisoniy—estetik butunlik sifatida ko'rib chiqamiz.

XX asr xitoy she'riyatining yorqin namoyondalaridan biri bu 冰心 Bing sin. Uning asl ismi Sie Van in 谢婉莹, tahallusi 冰心 bo'lib, tarjimada bu nom muz yurak ma'nosini anglatadi. Bing sin ilk marta 1919 yil avgust oyida «Ikki oila» nomli o'zining she'rlar va hikoyalari to'plamini nashrdan chiqardi.

O'sha kezlari yapon she'riyatidan kirib kelgan «qisqa she'rlar» («syao shi») nomli yangi she'riy uslubda ham ijod qila boshladi. Bu uslubda yozilgan she'rlari bilan Bing sin xalqning mehri va e'tirofiga sazovor bo'ldi. Ilk bor ko'rganda qisqa, kichik satrlar bo'lib ko'ringan she'rlarda aslida chuqur ma'no va mazmun yashiringan edi. Uning she'rlarida porloq kelajak uchun chaqiriqlar yangraydi, yoshlik tafti, shijoati va orzu-umidlari namoyon bo'ladi.

Endi esa 1923 yilda yozilgan uning “Qog'oz kema” she'rini tahlil qilib ko'ramiz.

纸船—寄母亲

我从不肯妄弃了一张纸

总是留着——留着，

叠成一只一只很小的船儿，

从舟上抛下在海里。

有的被天风吹卷到舟中的窗里，

有的被海浪打湿，沾在船头上。

我仍是不灰心地每天叠着，

总希望有一只能流到我要它到的地方去。

母亲，倘若你梦中看见一只很小的白船儿，

不要惊讶它无端入梦。

这是你至爱的，女儿含着泪叠的，

万水千山，求它载着她的爱和悲哀归去。

Zhǐ chuán—jì mǔqīn

wǒ cóng bù kěn wàng qíle yī zhāng zhǐ

zǒng shì liúzhe——liúzhe,

dié chéng yī zhǐ yī zhǐ hěn xiǎo de chuán er,

cóng zhōu shàng pāo xià zài hǎilǐ.

Yǒu de bèi tiān fēng chuī juǎn dào zhōu zhōng de chuāng lǐ,

yǒu de bèi hǎilàng dǎ shī, zhān zài chuán tóu shàng.

Wǒ réng shì bù huī xīndì měitiān diézhe,

zǒng xīwàng yǒuyī zhǐ néng liú dào wǒ yào tā dào dì dìfāng qù.

Mǔqīn, tǎngruò nǐ mèng zhòng kànjiàn yī zhǐ hěn xiǎo de bái chuán er,
 bùyào jīngyà tā wúduān rùmèng.
 Zhè shì nǐ zhì ài de, nǚ'ér hánzhe lèi dié de,
 wànshūiqiānshān, qíu tā zàizhe tā de ài hé bēi'āi guī qù
 "Qog'oz qayiq –Onamga yuboraman"
 Qog'oz borki, sira tashlavormadim
 Saqladim saqladim doimo ba'rín
 Birin ketin buklab, yasab qayiqcha
 Kemadan dengizga tomon tashladim
 Shamol darcha tomon uchirdi kimni,
 Kimni to'lqin otdi kema boshiga,
 Men umid-la qayiq yasayveraman
 Oqib borar deya orzum qoshiga..
 Ona, tushingizga kirsa oq qayiq
 Biling bu qizingiz yig'lab yo'llagan
 O'sha qayiq: daryo, tog'lardan kelgan
 To'lib qaytmoq uchun mehringiz bilan!
 (muallif D.A.Sodiqova tarjimasi)

Shoira bu she'rni Amerikaga yo'l olgan kemada ketayotgan mahal yozgan. U AQSh ga ta'lim olish uchun borayotgandi. Vataniga yana qaytadimi yo'qmi hali bilmasdi. Bu she'rdagi "qog'oz qayiqcha" shoira bilan onasi o'rtasida, yohud shoiraning jonajon vatani bilan kema orasida, yoki o'tmish va keljak aro bir bog'lovchi ko'prik sifatida tasvirlangan⁸. Bu she'r bolalik ohangi bilan yozilgan. "Qog'oz qayiqchalar"ning bolalarcha harakati orqali shoira his-tuyg'ularini buyumlar orqali ifodalab, "qog'oz qayiqlar"ga alohida urg'u bergen. She'r onaga bo'lgan mehr va farzandning sog'inch izhori, shuningdek, muallifning vatanga bo'lgan chuqur muhabbatini ifodalaydi.

“我从不肯妄弃了一张纸” satridagi “从”bu 从来(*cong lai -doimo*)ning qisqa shakli *bo'lib*, 从不(*cong+bu*) bilan birga kelganda hech qachon ma'nosini bildiradi. “肯”ken- rozi *bo'lmoqlik*, xohlamоq, tayyor *bo'lmoq*; 妄弃了 *wàng qìle-* oson tashlab yuborish deya tarjima qilinadi. 一张纸 *yī zhāng zhǐ* bir varaq qog'oz. Shoira hatto bir varaq qog'ozni ham behuda tashlab yubormasligini ta'kidlamoqda. 总是留着——留着 *zǒng shì liúzhe*—— *liúzhe*- hamisha saqladim, saqladim deya o'zining qat'iyatiga ishora qilmoqda.

Xitoy yozuvchilari tahlil qilingan she'rda she'rning uch bandiga mos keladigan uchta semantik qismni ajratib ko'rsatadilar. Birinchi qismda lirik qahramon harakat qiladi, ikkinchi qismda umid qiladi, uchinchi qismda esa tush ko'radi. Birinchi qism qahramonning tabiatini ochib beradi: u tejamkor (u qog'ozni isrof qilmaydi), qat'iyatli va umidvor(u har

⁸ Путинцева, А. А. Сопоставительный анализ оригинала и перевода стихотворения Бин Синь «Бумажный кораблик» / А. А. Путинцева, Т. В. Привороцкая. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2015. — № 10 (90). — С. 1437-1440.

kuni qayiqchalar yasaydi, garchi ular kemadan uzoqqa suza olmasalar ham). Rus tarjimoni L. E. Cherkasskiy ushbu she'rni rus tiliga tarjima qilar ekan, bunda muallif "oddiy qog'ozdan qayiq yasamaydi, balki ularni yoqimsiz parchalardan ham yasaydi", deya qahramonning tushkun kayfiyatini bo'rttirib ko'rsatib o'tgan.

Shoira keyingi qatorda parallel tuzilish o'rniga "有的... 有的" yōude... yōude... oppozitsiyasini (ba'zilar-ba'zilar) qo'llagan. "Ba'zi + sub'ekt + fe'l, Ba'zi + sub'ekt + fe'l yoki "Ba'zilar + fe'l, Ba'zilar + fe'l" olmoshli konstruksiyasidan foydalanilgan. 有的被天风吹卷到舟中的窗里， 有的被海浪打湿， 沾在船头上(ayrimlar shamol kuchidan derazaga urilsa, ayrim kishilar to'lqinlar ostida qolib, kemaning tumshug'iga borib qoladilar).

我仍是不灰心地每天叠着，总希望有一只能流到我要它到的地方去

。

Ammo, muvaffaqiyatsizliklarga qaramay, qahramon Bing sin yangi qayiqlar yasashda davom etmoqda. Axir, u hech bo'lmaganda bittasi ularni yuboradigan joyga – onasining manziliga suzishi mumkinligiga umid qiladi. Oxirgi stanza qahramon o'zini eslatish uchun qayiqlarni yuboradigan qabul qiluvchi kishi- onasiga murojaat qilish bilan boshlanadi. Tushdag'i qog'oz qayiqni ko'rish, inson orzu qilgan rejali yoki istaklari haqiqatga to'g'ri kelmasligini anglatadi. Bundan tashqari, uyqu - bu siz o'ylaydigan odam bilan bog'lanishning bir usuli. Shunday qilib, shoira bir tomondan orzusining (uyga qaytish) mumkin emasligiga ishora qilsa, ikkinchi tomondan ona va qiz o'rtasidagi chambarchas bog'liqlik, ular ajralganda ham mustahkam saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. She'rning so'nggi misrasi epitetlar (白船儿Loq qayiq), obrazli iboralar (万水千山wànshuǐ qiānshān – daryolar va minglab tog'lar- "uzoq masofa" ma'nosida keltirilgan), qarama-qarshilik (爱和悲哀og'riq va muhabbat) bilan to'la.

Tilda zid ma'noli so'zlarning mavjudligi badiiy nutqning ifodaliligi, ekspressivligi, ta'sirchanligini ta'minlashda qulay vositalardan biridir. Sharq adabiyotida juda qadim zamonlardan buyon tildagi bu ifoda imkoniyatidan keng foydalanib kelingan. «Shoir uchun juda zarur bo'lgan san'atlardan biri tazoddir. Yevropa filologik an'anasa bu san'at «antiteza» deb yuritiladi. Badiiy asar tiliga bag'ishlangan ishlarda zdilantirish, qarshilantirish atamalaridan foydalaniladi. Zid ma'noli so'zlarni yonma-yon qo'llash orqali tushunchalar belgilar, holatlar, obrazlar zdilantiriladi. Kontekstual antonimlardan badiiy asarda tasvirning ta'sirchanligini oshirish maqsadida ishlatiladi. 万水千山, 求它载着她的爱和悲哀归去 satrida ham 爱和悲哀 (Ài hé bēi'āi) sevmoq, muhabbat hamda qayg'ulilik, hafalik so'zları bir-biriga zdilantirilgan. Muallif qayiqcha onasining muhabbati-yu og'riqlarini ortib, u tomonga qaytishini kutadi.

Bu she'r, Bing sin va 20-asrning 20-30-yillaridagi boshqa mualliflarning aksariyat she'rlari singari, erkin she'rda, ya'ni qofiyasiz yozilgan. Shu bilan birga, parallel sintaktik tuzilmalar 有的...有的yōude...yōude..va leksik takrorlar

留着, 留着liúzhe, liúzhe, 一只一只

yī zhī yī zhī so'zlarining qo'llangani she'rning to'lqinsimon ritmini saqlagan va o'quvchiga badiiy zavq bergan.

Bing sin yigirma uch yoshida yozgan "Qog'oz qayiq" she'ri Xitoyning Gonkong, Shanxay kabi ba'zi viloyat va shaharlarida xitoy adabiyoti bo'yicha maktab darsliklariga kiritilgan. Bing sin asarlarida bir xil uslubda yozilgan ko'plab she'rlar mavjud: "Melanxolik", "Men sevaman, qaytib kel, sevaman", "Kabutar" va boshqalar. Ularning barchasi zamonaviy she'riyatda tan olingan durdona asarlar hisoblanadi. Hayotning eng og'ir damlarida inson doimo onasi tomon(mehr-muhabbat va tushunish muhiti)ga intiladi. Bing sin o'z his-tuyg'ularini, qayg'u va nozik dil ohanglarini bir necha satrda ifodalashga muvaffaq bo'lgan. Ushbu she'r yangi tushunchani taqdim etadi, his-tuyg'ular ifodasini jonli va o'ziga xos. Shoir o'zini tinchlantirish uchun qog'oz qayiqdan foydalanadi, bu o'yinni ko'pincha bolalar o'ynaydi. She'rda shoirning onaga bo'lgan sog'inch hissi do'stona va tabiiy tarzda ifodalananib, odamlarda hayrat tuyg'usini uyg'otuvchi hayoliy va ma'yus kayfiyat yaratadi. Qog'oz qayiq suv bo'yidagi uysiz kishining yolg'izligi timsoli, ona va vatanga sog'inch, hamda shoirning pokiza va go'zal orzu-istiklarini tasvirlaydi. Bolalar qalbi eng toza ko'ngil, ularning onaga bo'lgan muhabbatni tuyg'ularining eng oliysidir. Qog'oz qayiq bu she'rning markaziy obrazi, lekin uni onaga bo'lgan sog'inch bilan qanday bog'laysiz? Shuning uchun, muallif "-Ona, tushingizda kichkina oq qayiqni ko'rsangiz, u tushga sababsiz kirganiga hayron bo'lmang" jumlesi orqali mohirona o'tishni amalga oshirgan. Qayiq minglab tog'lar va daryolar bo'ylab o'zida mehr-muhabbatni olib yuradi. Qanday kichik, ammo buyuk sevgi! Shoir qog'oz qayiqlar bilan onaga bo'lgan sog'inchini juda samimiy va badiiy tarzda namoyon etgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Большой русско-китайский словарь [Электронный ресурс]. URL: <http://bkrs.info/> (дата обращения 12.05.2015).
2. В поисках звезды заветной: Китайская поэзия первой половины XX в. М.: Художественная литература, 1988. — 352 с.
3. Ожегов С. И. Словарь русского языка: Около 57000 слов / Под ред. докт. филол. наук, проф. Н. Ю. Шведовой. 16-е изд., испр. М.: «Русский язык», 1984. — 748 с.
4. Приворотская Т. В. Способы достижения речевой компрессии при переводе с субтитрами (на материале фильма Цзинь Ма «Мулан», КНР, 2009 г) // Язык и культура. 2013. № 2 (22). Томск: Издательство Томского университета. — С. 61–67.
5. Приворотская Т. В., Тихонова Е. В. Формирование механизма переключения с китайского языка на русский посредством анализа кинотекста // Язык и культура. 2015. № 1 (29). Томск: Издательство Томского университета. — С. 38–44.
6. Тихонова Е. В. Обучение будущих лингвистов устному последовательному переводу на основе анализа дискурса аудио- и видеоматериалов (китайский язык;

- профиль «Перевод и переводоведение»: дис.... канд. пед. наук / Е. В. Тихонова. Томск, 2014. — 152 с.
- 7.冰心名作欣赏 (名家析名著丛书冰心) / 浦漫汀主编. 2 版. 中国和平出版社 : 北京, 2007. — 310 页.